

5-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Original variant

Sana: _____ Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Insonlarning biror belgisiga ko'ra huquq va erkinliklarining cheklanishi nima deb ataladi? (B – 2 ball)

A) Utilizatsiya B) Urbanizatsiya C) Sivilizatsiya D) Diskriminatsiya

2. O'zbekistonning asosiy suv manbai bo'lgan daryolar qaysi tog'laridan oqib keladi? (B- 2 ball)

A) Tyan-Shan va Pomir B) Everest va Hind C) Alp va Oltoy D) Himaloy

3. Quyidagilardan qaysi hujjat butun dunyo insonlarining huquqlarini himoya qiladi? (B – 2 ball)

A) Mehnat kodeksi B) Konstitutsiya
C) Inson huquqlari deklaratsiyasi D) Mustaqillik deklaratsiyasi

4. Qanday qonunlar noto'g'ri, ya'ni adolatsiz qonunlar hisoblanadi? (B – 2 ball)

A) Odamlarning burchlarini eslatib turadigan qonunlar
B) Barcha fuqarolar uchun bir xil bo'lgan qonunlar
C) Davlatda tartibni saqlashga yordam beradigan qonunlar
D) Insonlarning haq-huquqlarini kamsituvchi qonunlarda

5. Yakunlangan fikr hosil qilish uchun quyidagi maqollarni qismlarini birlashtiring. (Q – 2,8 ball)

1	Vataning tinch –	a) ildizsiz daraxt
2	Vatan bor joyda –	b) xizmat qilishdir
3	Vatansiz inson –	c) oltin yurtning
		d) baxt bor
		e) sen tinch

A) 1-b, 2-d, 3-c B) 1-e, 2-d, 3-a C) 1-c, 2-d, 3-a D) 1-d, 2-e, 3-c

6. Quyidagilardan fuqarolarning burchlarini aniqlang. (Q-2,8 ball)

1) soliqlarni o'z vaqtida to'lash 2) ta'lim olish 3) erkin fikr bildirish
4) oilada tarbiyalanish 5) tarixiy obidalarni hurmat qilish 6) Vatanni himoya qilish
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 5, 6 D) 2, 4, 5

7. Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga munosabatda bo'lishga majburdirlar. Ushbu qoidadagi tushirib qoldirilgan jumlani o'rniga qo'ying. (Q – 2,8 ball)

A) ehtiyotkorona B) adolatli C) har qanday D) tabiiy

8. Umida ertalab kitob o'qishni xohlaydi, Jamshid esa tashqariga yugurishga chiqishni afzal ko'radi. Anvar esa ularga qo'shilishni istaydi. Uchala do'st uchun eng yaxshi yechim qaysi? (Q – 2,8 ball)

A) Faqat kitob o'qish B) Faqat tashqariga yugurish
C) Avval qisqa yugurish, keyin kitob o'qish D) Har biri alohida mashg'ulot qilishi

9. Anvar bilan Jamshid tez-tez urishib qolishadi. Anvar baquvvat bo'lgani uchun kuchiga ishonib, hadeb mushtlashaveradi. Anvarning bu harakati nima deb ataladi?(Q-2,8 ball)

- A) Qaysarlik B) Zo'ravonlik C) Kamsitish D) Manmanlik

10. Maktabga mashhur basketbolchi tashrif buyurdi va aytdiki, eng yaxshi jamoa – bu bir-birini tinglaydigan va xato qilganida yordam beradigan jamoadir. O'yin davomida Sardor va Komil o'rtasida kichik tushunmovchilik yuz berdi, lekin Komil kechirim so'radi va Sardor xursand bo'lib o'yinni davom ettirdi. Basketbolchi Sardor va Komilga nimani o'rgatmoqchi bo'ldi?(Q-2,8 ball)

- A) Faqat yirik ochkolarga erishish muhim
B) Har doim o'zing mustaqil harakat qilishing kerak
C) Yutish uchun faqat eng tez va kuchli o'yinchilar kerak
D) Xato qilganlarni tanqid qilmasdan, bir-birini qo'llab-quvvatlash kerak

11. Dildora sinfda o'tirganida qalamini topolmay qoldi. Uning yonida o'tirgan Nigora esa darhol o'zining ortiqcha qalamini unga uzatib: “Mana, ishlatib turaqol,” — dedi. Bu vaziyatda Nigorada qanday xulq-atvor namoyon bo'lgan? (Q-2,8 ball)

- A) Beparvolik B) Hamjihatlik C) Ataylab e'tibor qozonish D) Qiziqmaslik

12. Umida maktabda sinfdoshlaridan orqada qolmaslik uchun doim harakat qiladi. Oldiga biror ishni bajarishni maqsad qilsa, albatta uni uddalaydi. Yaqinda olimpiadada ishtirok etgan Umida yuqori natijani qo'lga kiritdi. Umidaning qaysi xislatlari uni muvaffaqiyat sari yetakladi?(Q-2,8 ball)

- A) Uddaburonlik B) Mug'ombirlik
C) Tirishqoqlik va qat'iyatlilik D) Sir saqlay olish

13. Anvar moshinada ketayotganida yo'l chetida qora ko'zoynak taqqan va qo'lida tayoq ushlagan odamni ko'rib qoldi. U serqatnov yo'ldan o'tolmay turgan edi. Anvar moshinadan tushib, hurmat bilan ushbu insonni qo'lidan ushladi va yo'ldan o'tishiga yordam berdi. Anvar nima uchun bu insonga yordam bergan? (Q-2,8 ball)

- A) Hammaga maqtanish uchun
B) Har bir inson hurmatga loyiq bo'lgani sababli
C) Yo'l qoidasini buzmasligi uchun
D) Ushbu shaxsga jarima qo'llanilmasligi uchun

14. Azizbek bahorda bobosi bilan ko'chatlarni ekdi, daraxtlarni oqladi va parvarishladi. Azizbek ushbu harakati orqali tabiatga qanday hissa qo'shdi? (Q-2,8 ball)

- A) Atrof-muhitni yaxshilash, tabiatni asrab avaylash
B) Tabiatga ziyon yetkazish, nobud qilish
C) O'zini ibratli qilib ko'rsatish
D) Sinfdoshlari yonida hurmati oshish

15. Sinfda mashg'ulot paytida Azizbek yangi o'quv daftarini uyda unutib qolgani uchun biroz xavotirlandi. Buni sezgan Dilnoza unga qo'shimcha daftarini taklif qilib: “Bugungi darsni birga bajaramiz”, — dedi. Azizbek mamnun bo'lib, darsda faol

ishtirok eta oldi. Dilnoza nima uchun yordam berdi va bu yordam Azizbekka qanday ta'sir ko'rsatdi? (M-4 ball)

- A) Chunki Azizbek daftar olib kelmagandi; Azizbek darsga qiziqmay qoldi.
- B) Chunki Azizbek qiynalayotganini ko'rdi va qo'llab-quvvatladi; Azizbek o'ziga ishonchi oshib, faol qatnashdi.
- C) Chunki Dilnoza daftarlarini ko'rsatmoqchi edi; Azizbek chalkashib ketdi.
- D) Chunki o'qituvchi topshirig'i bo'lgan edi; Azizbek yana ham ko'proq xavotirlandi.